



## THE ROLE OF THE SOVIET GOVERNMENT IN THE DEVELOPMENT OF THE PLAGUE EDUCATION SYSTEM AND ITS RESULTS

Xasanova Nodira Ibragimovna

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15534655>

### ARTICLE INFO

Received: 22<sup>nd</sup> May 2025

Accepted: 27<sup>th</sup> May 2025

Online: 28<sup>th</sup> May 2025

### KEYWORDS

Soviet education system, Surkhan region, eradication of illiteracy, communist ideology, national and religious resistance, historical analysis, Soviet schools, educational policy.

### ABSTRACT

*This article analyzes the changes implemented in the education system during the Soviet era of the 1920s-1930s and their impact on society, with a focus on the Surkhan region. The Soviet government's educational policy, despite facing national and religious resistance, aimed to reduce illiteracy, establish new Soviet schools, and train personnel based on communist ideology. Relying on historical sources, the article highlights both the positive and negative aspects of the Soviet education system, as well as the social and cultural conflicts among the local population. While the Soviet government's efforts to eradicate illiteracy laid the foundation for social progress, this process contradicted local traditions and national values.*

## РОЛЬ СОВЕТСКОГО ПРАВИТЕЛЬСТВА В РАЗВИТИИ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ ОАЗИСА И ЕГО РЕЗУЛЬТАТЫ

Хасанова Нодир Ибрагимовна

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15534655>

### ARTICLE INFO

Received: 22<sup>nd</sup> May 2025

Accepted: 27<sup>th</sup> May 2025

Online: 28<sup>th</sup> May 2025

### KEYWORDS

Советская система образования, Сурхандарьинский регион, ликвидация неграмотности, коммунистическая идеология, национальное и религиозное сопротивление, исторический анализ, советские школы, образовательная политика.

### ABSTRACT

*В статье анализируются изменения, проведенные в системе образования в советскую эпоху 1920–1930-х годов, и их влияние на общество на примере Сурхандарьинского региона. Политика советской власти в области образования, несмотря на национальное и религиозное сопротивление, была направлена на сокращение неграмотности, создание новых советских школ и подготовку кадров на основе коммунистической идеологии. Опираясь на исторические источники, в статье освещаются как положительные, так и отрицательные стороны советской системы образования, а также социальные и культурные конфликты среди местного населения. Хотя деятельность советской власти по ликвидации неграмотности создала основу для социального прогресса, этот процесс противоречил местным традициям и национальным идеалам.*



## SOVET HUKUMATINING VOHA MAORIF TIZIMINING RIVOJLANISHIDAGI O'RN I VA UNING NATIJALARI

**Xasanova Nodira Ibragimovna**

Denov tadbirkorlik va pedagogika universiteti

"Tarix va falsafa" kafedrası dotsenti (PhD)

UDK: 9:433:908 ORCID 0009-0004-5344-5182

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15534655>

### ARTICLE INFO

Received: 22<sup>nd</sup> May 2025

Accepted: 27<sup>th</sup> May 2025

Online: 28<sup>th</sup> May 2025

### KEYWORDS

Sovet ta'lim tizimi, Surxon vohasi, savodsizlikni tugatish, kommunistik mafkura, milliy va diniy qarshiliklar, tarixiy tahlil, sovet maktablari, ta'lim siyosati.

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada XX asrning 20-30-yillarida sovet davrida ta'lim tizimida amalga oshirilgan o'zgarishlar va ularning Surxon vohasi misolida jamiyatga ta'siri tahlil qilinadi. Sovet hokimiyatining maorif sohasidagi siyosati, jumladan, milliy va diniy qarshiliklarga qaramay, savodsizlikni kamaytirish, yangi sovet maktablarini tashkil etish va kommunistik mafkura asosida kadrlar tayyorlashga qaratilgan. Tarixiy manbalarga asoslangan holda, sovet ta'lim tizimining ijobiy va salbiy tomonlari, shuningdek, mahalliy aholi orasidagi ijtimoiy va madaniy qarama-qarshiliklar yoritilgan. Sovet hukumatining savodsizlikni tugatishga qaratilgan faoliyati ijtimoiy taraqqiyotga zamin yaratgan bo'lsa-da, bu jarayon mahalliy an'analar va milliy g'oyalarga zid bo'lgan.*

### KIRISH

Sovet davrida ta'lim tizimi o'zgara boshladi va bu jarayon XX asrning 20-30 yillarida ayniqsa qattiq ta'sir ko'rsatgan. Sovet hokimiyati o'zining maorif siyosatida milliy g'oyalarga qarshi bo'lib, kommunistik mafkura asosida yangi ta'lim tizimini qurishni maqsad qilgan. Ushbu maqolada sovet hokimiyati tomonidan o'rnatilgan maorif tizimining voha (Surxon vohasi misolida) uchun qanday ahamiyatga ega bo'lgani va natijalari tahlil qilinadi. Ilmiy tadqiqotlar asosida tahlil etilgan ilmiy monografiyada XX asr 20-30-yillarida mamlakatimiz ta'lim tizimi murakkab va ziddiyatli davrni boshidan kechirdi. Bu davrda sovet hokimiyati "shaklan milliy, mazmunan socialistik" madaniyat barpo etishga kirishdi. Sovet davlati yangi tipdagi maktablar ochar ekan, avvalo o'ziga sodiq bo'lgan kadrlarni shakllantirishga harakat qildi. Milliy g'oyalar chetga surilib, o'rniga kommunistik mafkura joriy qilindi. Sovet maktablarida asosiy e'tibor g'oyaviy-mafkuraviy tarbiyaga qaratildi.

### METODLAR

Sovet davrida ta'lim tizimi borasidagi izlanish, avvalo, kuzatuv metodi asosida nazariy ma'lumotlar to'plandi. So'ngra mazkur ma'lumotlar swot tahlilga solinib, kerakli xulosalar olindi. Sovet davri hamda keyingi davrda ta'limning rivoji qiyosiy tahlil asosida aniqlandi. Mazkur metodlardan olingan xulosalar umumlashtirilib, ta'lim borasidagi islohotlarning qaysi yo'li asosli ekani oydinlashdi.

### NATIJALAR

#### 1. Sovet ta'lim tizimi va uning ta'siri

Sovet davri ta'lim siyosati vohada mavjud bo'lgan an'anaviy maktablarni yo'q qilishga va yangi sovet maktablarini joriy etishga qaratilgan edi. Bu maktablar o'g'il va qizlarni birgalikda



o'qitish, savodsizlikni yo'q qilish va kommunistik mafkura asosida yangi kadrlar tayyorlashni maqsad qilgan. 1920-yillarda sovet ta'lim tizimi savodsizlikni tugatish va o'quvchilarni bir xil standartlarga ko'ra tarbiyalashga o'ziga xos urg'u bergan. 1880 yilda Boysun bekligining Darband amlokдорligida bo'lgan I.V.Mushketov 400 xo'jalik yashashi, shundan yuzdan ortig'i mullalarga tegishli ekanligini qayd qiladi[1:560]. Bundan tashqari, XIX asrda Surxon vohasi qishloqlarida ziyolilar va badavlat kishilar tomonidan ko'plab maktablar tashkil etilganligi tarixiy manbalarda qayd etiladi. Jumladan, Boysun bekligidagi Bog'lidara qishlog'ida Hamroqul oqsoqol boshchiligida hashar yo'li bilan maktab qurilgan. Birgina Xo'janqon qishlog'ining o'zida to'rtta maktab faoliyat yuritib, ularga mulla Abdurahmon, mulla Rahimqul, Chori hoji va Haydar miyon asos solishgan. Yarim o'troq va yarim ko'chmanchi aholining qishki qo'nish vaqtida foydalanish uchun Nov qishlog'ida mulla Rizo bilan mullo Mirzo tashabbusi bilan maktab tashkil etilgan. Yuqorida ismi qayd etilgan Alimardonboy Yoriqsoy qishlog'ida ham maktab ochgan[2:125].

## *2. Savodsizlikni tugatish va ta'limni ommalashtirish*

Sovet maktablarining soni har yili oshgan, 1924-1927 yillarda Surxondaryoda yangi maktablar tashkil etilgan, va bunday maktablarda o'quvchilar soni sezilarli darajada oshgan. Shu bilan birga, sovet hukumatining savodsizlikni tugatish bo'yicha o'tkazgan kampaniyalari orqali mahalliy aholi orasida ta'lim olish imkoniyatlari kengaygan. 1925 yilga kelib, 50 ming nafar o'quvchi savod chiqargan, va 1927 yilga kelib, 1700 dan ortiq kishilar savod chiqaruvchi maktablarda o'qigan[3:203]. Rossiya imperiyasining maorif sohasidagi siyosati Buxoro amirligi maktablariga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Buxoro amiri qushbegisi hujjatlarida ota-onalar o'z bolalarining o'qishlari uchun 15-20 tanga «maktab puli» to'laganliklari qayd etilgan[4:38]. Bu esa, kambag'al oilalar uchun qiyinchiliklar tug'dirar edi. Aholining 80% ga yaqini savodsiz bo'lish sababi ham shunda edi. Sovet hokimiyati o'rnatilganidan so'ng 1918 yil 20 yanvarda RSFSR Xalq Komissarlari Soveti "Cherkovni davlatdan va maktabni cherkovdan ajratish to'g'risida" dekret qabul qildi. Oradan biroz vaqt o'tgach, 1918 yil 20 noyabrda Turkiston ASSR Xalq Komissarlari Soveti ham shu mazmunda dekret qabul qildi. Yangi sovet maktablarini barpo etish va xalq maorifini boshqarish uchun Maorif Xalq Komissarligi va mahalliy Sovetlar huzurida maorif bo'limlari tashkil etildi[5:45]. Turkiston ASSR Maorif Xalq Komissarligi buyrug'i bilan respublikaning hamma maktablarida bepul o'qitish joriy etildi.

## *3. Siyosiy maqsadlar va maorif islohotlarining ijtimoiy ta'siri*

Sovet ta'lim tizimi nafaqat ilmiy va madaniy rivojlanishga qaratilgan edi, balki kommunistik mafkura va bolsheviklarning siyosiy maqsadlariga xizmat qilgan. O'quvchilarni kommunistik g'oyalarga tayyorlash, ularni iqtisodiy va siyosiy tizimda faol ishtirok etishga chaqirish hamda Sovet Ittifoqining hokimiyatini mustahkamlash asosiy maqsadlardan biri bo'lgan. Natijada, Sovet hukumatining maorif siyosati aholi orasida o'z ta'sirini ko'rsatgan va ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishga xizmat qilgan. 1921 yilda Termizda birinchi sovet maktabi ochiladi. Mazkur maktabda ta'lim rus tilida olib borilib, olti sinf, 213 o'quvchi va olti o'qituvchidan iborat edi. 1923 yilda mahalliy millat bolalari uchun Mahmudxo'ja Behbudiy nomidagi birinchi o'zbek maktabi ochiladi[6:15]. Bu hozirgi 2-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi edi. Maktabda 56 o'quvchi va uch nafar o'qituvchi bo'lgan. Biroq, ushbu maktab shaharning o'qish yoshidagi barcha aholisini qamray olmagan. Shu bois 1924 yilda 150 o'quvchiga mo'ljallangan 3-sonli maktab ochiladi. Shaharda mahalliy aholi orasidan yetishib



chiqqan savodxon insonlar va ma'rifat jonkuyarlari harakatlari natijasida yetim bolalar va kam ta'minlangan oilalarning bolalari uchun maxsus internat maktab ochiladi. Natijada Termiz shahridagi maktablar soni 4 taga yetdi. 1926-27 o'quv yiliga kelib, shaharda 1 ta dehqon yoshlar maktabi tashkil etiladi. 1924 yilda Sherobod shahrida dastlabki sovet maktabi tashkil etildi. Ushbu maktabga shahar markazidan tashqari Xo'jagi, Oqqo'rg'on, G'ambur, Cho'yanchi, Qo'shtegirmon, Taroqli va Qulluqsho qishloqlaridagi bolalar ham o'qishga jalb etildi. 1924 yil 1 yanvar holati bo'yicha, Surxondaryo viloyati hududida 733 o'quvchisi bo'lgan jami 13 ta birinchi bosqich maktabi faoliyat yuritgan. Shundan 11 ta maktab 630 nafar o'quvchisi bilan shaharlarda, qolganlari qishloq joylarida ish olib borar edi[7:75]. Termiz shahrida maktablar soni 1925 yilda 2 taga yetdi. Bu maktablar asosan shahardagi rus va rusiyzabon aholi farzandlari uchun tashkil etilib, 1925 yilda Surxondaryo okrugida boshlang'ich maktablar soni 13 ta bo'lib, sifxonalarda 733 o'quvchiga ta'lim berildi. Tashkil etilgan maktablarni 11 tasi shahar va rayon markazlarida, 2 tasi qishloqlarda faoliyat ko'rsatgan edi. 1926-1927 o'quv yillarida Termiz shahrida 4 ta maktab ish boshladi.

#### *4. Milliy va diniy qarshiliklar*

Sovet maktablari milliy va diniy qarshiliklarga duch kelgan. Mahalliy aholining an'anaviy diniy maktablar va ta'lim tizimiga bo'lgan qiziqishi yuqori bo'lganligi sababli, sovet ta'limi ko'pincha qarshiliklarga uchragan. Bu qarshiliklarning bir qismi an'anaviy maktablarning ta'lim sifati va jamiyatdagi o'rni bilan bog'liq edi. Ayniqsa, sovet tizimi tomonidan joriy etilgan o'g'il va qizlarni birgalikda ta'lim olish siyosati mahalliy musulmonlarning an'anaviy qarashlari bilan ziddiyatga kelgan. Ta'lim tizimidagi og'ir vaziyat mahalliy sovetlarni zudlik bilan chora ko'rishni talab qilar edi. Shu maqsadda 1925 yilning 24 noyabrida Termiz shahrida bo'lib o'tgan birinchi bosqich o'quvchilarining birinchi kengashida maktablarning ikkinchi bosqichga o'tilishi haqida qaror qabul qildi. Ushbu qarorga ko'ra, shaharda uch oylik pedagogik kurslar tashkil qilinadigan bo'ldi, ular 1926/1927 o'quv yilidan boshlab 9 oylik kurslarga aylantirildi. 50 nafar tinglovchidan 43 nafari o'qishni muvaffaqiyatli tugallab, qishloq joylariga ishga jo'nab ketishdi. 1928/1929 o'quv yilidan boshlab Surxondaryoda birinchi o'rta maxsus bilim yurti – Termiz ta'lim-tarbiya (pedagogika) texnikumi ochildi. Bilim yurtida o'quv muddati 6 oy etib belgilandi[6:26]. Bolsheviklarning ta'limga bunchalik katta e'tibor berishining o'ziga yarasha sabablari bor edi. Aholining savodini chiqarish orqali bolsheviklar sovet tuzumining afzalligini ko'rsatish, xalqni kommunistik mafkura asosida tarbiyalash, targ'ibot-tashviqot ishlarini mumkin qadar keng tabaqalarga yetkazish, kichik millatlarning e'tiborini qozonishni mo'ljallashgan edi. Shubhasiz, bu kabi tadbirlar sovetlarning xalq o'rtasidagi obro'yini ko'tarib, ularning hokimiyatini mustahkamlar, kommunistik aqidalarning kuchayishiga xizmat qilar edi.

#### **MUHOKAMA**

Sovet ta'lim siyosati voaha aholisining savodsizligini qisqa vaqt ichida sezilarli darajada kamaytirdi. 1920-yillarda savodsiz aholi soni o'rtacha 80% dan 20-30% gacha kamaydi. Bu esa sovet hukumatining maorif sohasidagi muvaffaqiyatlaridan biri sifatida baholanishi mumkin. Ammo, ushbu o'zgarishlar mahalliy aholining g'oyaviy qarashlari, diniy va madaniy an'analariga mos kelmas edi, bu esa sovet tizimi bilan mahalliy aholi o'rtasidagi muammolarni keltirib chiqardi. Sovet hokimiyatni maorifga sohasidagi siyosatini taqqoslash maqsadida sovet davri adabiyotlarida qayd etilgan 1897 yilda O'zbekiston hududidagi savodli kishilar soni 3,6%, Turkmanistonda 7,8%, Tojikistonda 2,3%, Qirg'izistonda 3,1%, Qozog'istonda 8,1%, Rossiyada



29,6% bo'lganligi ta'kidlanadi[8:22]. Biroq, bunday talqin mafkura sohasidagi afsonadan iborat edi. Tadqiqotchi P.G.Kim tarixiy manbalarda keltirilgan faktlarga asosanib, 1897 yili Rossiya, Belorussiya va Turkistonda aholining, maktablarning, ulardagi o'quvchilarning sonlarini kuzatib, bu o'lkalardagi savodxonlikning darajasi ko'rsatib berdi[9:27]. Unga ko'ra, Rossiyada aholining umumiy soni — 126 368 800, maktablar soni — 33 401, o'quvchilar soni — 2 318 100, aholining umumiy soniga nisbatan o'quvchilar — 1,8 foizni tashkil etgan holda aholining savodxonligi — 21 foiz; Belorussiyada aholining umumiy soni 6 492 857, maktablar soni — 2263, o'quvchilar soni — 125 418, aholining umumiy soniga nisbatan o'quvchilar — 1,9 foizni tashkil etgan holda, aholining savodxonligi — 24,7 foiz; Turkistonda aholining umumiy soni — 3 792 774, maktablar soni — 6027, o'quvchilar soni — 64 015, aholining umumiy soniga nisbatan o'quvchilar — 1,7 foizni tashkil etgan holda aholining savodxonligi — 19,55 foiz bo'lgan. Savodxon aholini hisobga olish davrida arab imlosini bilsa-da, ruscha o'qish-yozishni bilmaganligi uchun mahalliy millat vakillari savodsizlar safiga qo'shib yuborilgan edi.

## XULOSA

Sovet hokimiyati o'rnatilganidan so'ng 1918 yil 20 yanvarda RSFSR Xalq Komissarlari Soveti "Cherkovni davlatdan va maktabni cherkovdan ajratish to'g'risida" dekret qabul qildi. Oradan biroz vaqt o'tgach, 1918 yil 20 noyabrda Turkiston ASSR Xalq Komissarlari Soveti ham shu mazmunda dekret qabul qildi. Yangi sovet maktablarini barpo etish va xalq maorifini boshqarish uchun Maorif Xalq Komissarligi va mahalliy Sovetlar huzurida maorif bo'limlari tashkil etildi. Turkiston ASSR Maorif Xalq Komissarligi buyrug'i bilan respublikaning hamma maktablarida bepul o'qitish joriy etildi. Maktablarga qabul qilishda tabaqaviy tafovutlarga barham berilishi e'lon qilindi, o'g'il va qiz bolalar birga ta'lim olishi, maktab ishlarini "kommunistlashtirish" vazifalari va asosiy yo'nalishlari belgilab berildi. Darhaqiqat, ta'lim sohasida sovet tuzumi chorizmga nisbatan ancha ilgarilab ketgan edi. Agar chorizm davrida Turkiston o'lkasida har yili o'rta hisobda 9 ta maktab ochilgan bo'lsa, Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida har yili o'rtacha 674 tadan maktab tashkil etildi. Ayniqsa, yoshi kattalar o'rtasidagi savodsizlikni tugatishga alohida e'tibor qaratildi. "Savodsiz kishi siyosatdan chetda turadi, — degan edi V.I.Lenin, — unga avvalo alifbeni o'rgatmoq kerak. Busiz siyosat bo'lishi mumkin emas, busiz faqat mish-mish gaplar, g'iybat, cho'pchaklar, xurofiy gaplarga bo'lishi mumkin, lekin siyosat emas"[10:174]. Sovet hukumati o'zining maorif tizimi orqali ta'limni ommalashtirish, savodsizlikni tugatish va kommunistik mafkura asosida yangi avlodni tarbiyalashda katta yutuqlarga erishgan bo'lsa-da, bu jarayon mahalliy aholi orasida qarshiliklarga duch keldi. Sovet ta'limi milliy g'oyalarga qarshi turgan va ko'plab an'anaviy maktablarni tugatishga olib keldi. Shu bilan birga, savodsizlikni kamaytirish bo'yicha olib borilgan ishlar ijtimoiy taraqqiyotning muhim bir qismiga aylandi.

## References:

1. Мушкетов И.В. Туркестан. Геологические и орографические описание, по данным, собранным во время путешествий с 1874 по 1880 г., в двух частях. Том 1. –СПб., 1886
2. Умаров И, ва бошқалар. Э. Сурхон воҳасида этник тарих ва этномаданий жараёнлар. –Б. 125
3. Уз МА. 25-фонд, 1-руйхат. 8-йиғма жилд



4. Турсунов С, Пардаев Т, Маҳмадиёрова Н. Сурхондарё – этнографик макон. – Тошкент: Академнашр, 2012
5. Народное образование, наука и культура в СССР. Статистический сборник. –Москва: Статистика, 1971
6. Surxondaryo viloyat davlat arxivi. 89-fond, 1-ro'yxat. 22-ish Сурхондарё вилоят давлат архиви. 89-фонд, 1-руйхат. 22-иш
7. Халияров Х, Бычков Д, Блинников А. Сурхандаьинская область.1998
8. Народное образование, наука и культура в СССР. Статистический сборник. –Москва: 1998
9. Ким П.Г. Уйдирма ва ҳақиқат. Фитна санъати. 1-китоб. –Тошкент: Фан, 1993
10. Ленин В.И. Полное собрание сочинений. Том 44. –Москва: Издательство политической литературы.